

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILIDAGI MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Aytniyazova Nargiza Farxatovna
nargiza.farxatovna@gmail.com

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.12514956>

Annotatsiya: Lingvokulturologiya fani, birinchi navbatda, maqollarning mazmun tomoniga e'tibor qaratadi hamda bu borada boshqa gumanitar fanlar ma'lumotlaridan foydalanadi. Maqolada qiyoslash uchun keltirilgan o'zbek va qoraqalpoq tilshunosligiga xos xususiyatlarni ifodalovchi maqollarni tahlil qilish madaniyatlar qiyosini o'rganish imkonini beradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining nomlarini o'z ichiga olgan o'zbek va qoraqalpoq maqollari manba sifatida ishlatiladi.

Kalit so'zlar: *til, maqol, madaniyat, milliylik, lingvokulturologiya, paremiyalar, etnik stereotiplar.*

Abstract. Linguistic culture primarily focuses on the content of proverbs and uses information from other humanities in this regard. The analysis of proverbs that express the characteristics of Uzbek and Karakalpak linguistics presented for comparison in the article makes it possible to study the comparison of cultures. Uzbek and Karakalpak proverbs containing the names of food products are used as sources.

Keywords: *language, proverb, culture, nationality, linguistic culture, paremias, ethnic stereotypes.*

Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari hamkorligida yuzaga kelgan zamonaviy o'zbek tilshunosligining muhim yo'nalishidir. Bu fan qator fanlar bilan bog'liq, jumladan, adabiyot, etnografiya, etnolingvistika, madaniyatshunoslik, ammo tilshunoslikning ustuvorligida shakllangan.

Tilshunoslik XIX asrda tillarning qiyosiy-tarixiy va tipologik muammolari bilan shug'ullanar ekan, uni madaniyat bilan mushtarak holda talqin qiladi. V.fon Gumboldt, G.Shteyntal, K.Fossler, A.Shleyxer, H.Paul, A.A.Potebnya asarlarining markazida til va madaniyat yaxlitligi masalasi turadi.

Lingvokulturologiya tilshunoslikning yosh, yangi sohasi bo'lsa-da, biroq unda frazeologik, konseptologik, leksikografik va lingvodidaktik yo'nalishlar shakllanib ulgurgan. Mazkur fanning asosiy vazifasi – til bilan madaniyatning bog'liq tomonini, ya'ni madaniyatga oid tushunchalarning tilda va uning turli vositalarida ifodalanish usullarini o'rganish, til va xalq mentaliteti o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tavsiflashdan iborat.

Lingvokulturologiyaning predmeti – madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, paremalarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi.

Turkiy xalqlarda maqollarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish tarixi “Devon-u lug'otit turk” asariga borib taqaladi. Lug'atda xalq og'zaki ijodiga oid 300 dan ortiq she'riy parchalar, 291 ta maqol va matal keltirilgan [1:49].

O'zbek tilshunosligida maqollar, asosan, XX asrning ikkinchi yarmidan maxsus tadqiqot obyektiga aylandi va xuddi shu davrdan boshlab lingvokulturologiya masalalariga

bag'ishlangan ilk tadqiqotlar Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmonova kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Shuningdek, o'zbek tili turli-tuman mavzudagi maqollarga boy ekanligi professor O'.Q.Yusupov va boshqa bir qancha tilshunos va adabiyotshunoslarning ishlarida ta'kidlab o'tilgan.

Professor O'.Yusupovning fikricha, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. "Zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va, ayni paytda, quroli hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatning tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi" [9:24]. Bu birliklar tarkibida xalq donoligini ifodalovchi so'zlar – maqollar, aniqrog'i, paremlar alohida ajralib turadi. Zero, ularda xalq o'zining bor tajribasini aql-zakovati bilan uyg'unlashtirgan holda namoyon qiladi. Maqollar ongda stereotip darajasida o'rnashadi va shu asosda inson atrofida va o'zida kechayotgan har bir hodisani baholaydi. Shu tarzda maqol va matallar borliqni baholashning milliy-madaniy mezoni sifatida yashaydi.

Lekin har qanday maqol ham lingvokulturologik tadqiq predmeti bo'lavermaydi. Maqollar, albatta, milliy mental xarakterga ega bo'lishi, o'zida shu xalq madaniyati, tarixiy yashash tarzini ifodalashi kerak.

"O'zbek xalq maqollari"da maqollarning 70 dan ortiq mavzu guruhleri jamlangan. Maqollarda o'zbek xalqining ko'p asrlik hayotiy tajribalar xulosasi tugal tarzda ifoda qilingan. Tuzuvchi T.Mirzayev yozishicha, "maqollar so'z san'ati mahsuli sifatida o'z ma'nosida, ko'chma ma'noda va har ikkala ma'noda qo'llanilishi mumkin" [4:6]. To'plamda berilgan maqollarning mavzu guruhlariga e'tibor qaratsak, ular orasida to'g'ridan to'g'ri oziq-ovqat yoki yegulik haqidagi maqollar guruhini uchratmaymiz. Kundalik turmushda ishlatiladigan oshxona anjomlari, oziq-ovqat mahsulotlari, milliy taomlar nomlari ishtirok etgan maqollarning ko'pchiligi ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lib, ular orqali boshqa ma'nolar ifodalangan. Aynan shunday so'zlar halollik va tekinxo'rlik, yaxshilik va yomonlik, yaxshi so'z va yomon so'z, adolat, insof va insofsizlik, tinchlik va notinchlik, tenglik va tengsizlik, donolik va nodonlik, tarbiya va odat, odob va odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik, saxiylik va baxillik, kamtarlik va manmanlik, sabr-qanoat va sabrsizlik, qadr-qimmat va qadrsizlik, oila va qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilik va begonalik, farzand va farzandsizlik, tajribakorlik va kaltabinlik, ta'magirlik va ochko'zlik, erk va erksizlik, farosat va farosatsizlik, sabab, bahona va natija, rizq-nasiba va benasiblik, tejamkorlik va isrofgarchilik, ehtiyoj va zaruriyat, me'yor va me'yorsizlik, foyda va zarar, imkon va imkonsizlik, farovonlik va yetishmovchilik kabi mavzudagi maqollarda mazmunni ochib berish uchun xizmat qilgan. Masalan,

"Sutini ich-u, sigirini surishtirma".

"Tovoqqa qarab oshini ol".

"O'rik o'rikni ko'rib oqarar".

"Qovoq ekib, qovun kutma".

"Qovuni yo'q kuz bo'lganini bilmas,

Sovuni yo'q yoz bo'lganini bilmas"[4].

Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining yashash tarzini belgilaydigan, tirikchilik faoliyati bo'lgan chorvachilik, ovchilik, baliqchilik kabi maqollarda ifodalangan ma'no xususiyatlarini madaniyat bilan bog'lab tahlil qilish bu xalqlarning geografik joylashuv jihatidan ham, tarixiy rivojlanish jihatidan ham xilma-xilligini ta'minlagan.

Maqollar odamzotning kundalik hayotida boshidan o'tkazgan tajribasi natijasida paydo bo'ladi. Ular odamlarning oddiy kuzatishlarini, his-tuyg'ularini ifodalaydilar. Ko'plab maqollar dehqonlar, ovchilar, chorvadorlar, ishchilar, oshpazlar tomonidan yaratilib, ularning kundalik kuzatishlari natijasida paydo bo'lgan. Masalan,

"Shamol kemadagilarning xohishiga qarab esmas".

"Yer – xazina, suv – gavhar".

"Palov desang, payshanbaga, do'lma desang, dushanbaga".

"Etning yaxshisi – qazi, Itning yaxshisi – tozi"[4].

"Iyttiñ bári tazi bolmas, Ettiñ bári qazi bolmas"[6]

Ushbu turg'un birikmalar bir vaqtlar ma'lum bir guruh tomonidan ishlatilgan, ammo keyinchalik katta omma tomonidan qabul qilinib, til tizimiga kirgan va turli vaziyatlarda ishlatilgan.

Yuqorida aytib o'tilgan maqollar manbalari ovchilik, dehqonchilik, oshpazlik sohalari bo'ladi. Ana shular qatoriga baliqchilik sohasini qo'shadigan bo'lsak, qoraqalpoq xalq maqollaridan farqli ravishda o'zbek xalq maqollari tarkibida bu sohaga oid maqollar kam uchraydi. Sababi tarixdan ma'lumki, qoraqalpoqlar Orol dengizi bo'ylarida istiqomat qilishgan hamda asosiy mehnat faoliyati baliqchilik bo'lgan, milliy taomlari ham, asosan, baliq go'shtidan tayyorlangan. Masalan,

"Shól jaǵalap qonbay, Kól jaǵalap qon".

"Tutıp alsañ sazandı, Toltırasañ qazandı".

"Baliǵı bolmaǵan kóli qurısın,

"Kiyigi bolmaǵan shóli qurısın".

"Eki kemeniñ basın uslaǵan suwǵa ketedi".

"Jarlınıñ teñi jarma, baliqshınıñ teñi qarma".

"Súmbile tússe suw suwır, Kóldegi baliq qurır".

"Baliq basınan shiriydi".

"Baliq jegen toq bolar, Hál-dármanı joq bolar".

"Shortan baliq jaqsı bolsa, Xiywaǵa barmas pa edi?"

"Suwdaǵı baliqqa quwanba, ol ele seniki emes".

"Baliqshi baliqshını uzaqtan tanıydi".

"Segiz qırlı baliqtı, Toǵız qırlı jigit aladı".

"Kólme dep kómpildeyseñ, Ishiñde bir baliǵıñ joq"[5].

Boshqa tillarni o'rganish jarayonida ko'p hollarda biror-bir tushunchaning kishi tafakkurida mavjud bo'lmasligiga sabab bo'ladigan u yoki bu tushunchani ifodalashda ekvivalentning topilmasligidan til vositalarining yetishmovchiligi muammosi yuzaga keladi. Bunga ekvivalentsiz leksika, ya'ni mazmun planini boshqa tildagi biror-bir leksik tushunchalar bilan taqqoslashning iloji bo'lmagan so'zlarga tegishli bo'ladi. U so'zlar bilan ifodalangan tushunchalar yagona, unikal, faqat mazkur madaniyat va tilga xos bo'ladi.

Zarurat tug'iladigan bo'lsa, til ushbu tushunchalarni ifodalash uchun o'zga tildan so'zlarni o'zlashtiradi. Masalan, o'zbek tilida *kespas, baliq qarma, aq sawlaq, juwerı gúrtik, sawkele, jegde* kabi oziq-ovqat mahsulotlari va milliy liboslari bo'lmaganidek, qoraqalpoqlarda *hasip, norin, yaxtak, beqasam to'n* kabi taom va kiyim nomlanishlari mavjud emas. Shu bois, tillarda o'zaro bir-biridan so'z o'zlashtirish hodisasi ro'y beradi.

Bir soʻz bilan aytganda, xalq maqollari bu xalqlarning madaniy merosidir. Ularda qoraqalpoq va oʻzbek xalqining barcha oʻy – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, feʼl-atvori va eʼtiqodi aks etadi. Har bir xalq oʻziga xos milliy-mental xususiyatlarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham taʼsir etmay qolmaydi. Hatto ayrim maqollardagi mavzular oʻxshash boʻlsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy boʻyoqdorlikni taʼminlaydi.

References:

1. Abdurahmonov Gʻ. “Devon-u lugʻotit turk” asarining oʻrganilish tarixidan. //Oʻzbek tili va adabiyoti. 2009, 6-son. B.49.
2. Aytiniyazova, N. (2024). Oʻzbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari. Oʻzbek tilining xorijda oʻqitilishi: taʼlim nazariyasi va amaliyoti, 1(01), 66–69. <https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/85>
3. kitapxana.com - Қарақалпақ әдебиятының электрон кітапханасы. Халық - Қарақалпақ фольклоры - Нақыл-мақаллар. 75-b.
4. Oʻzbek xalq maqollari. Toshkent, 2005. 6-b.
5. Qaraqalpaq folklori – naqıl-maqallar. Toshkent, 2019.
6. Qaraqalpaq folklori. Nukus, 1978. 4-tom.
7. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent, 2019.
8. Кадирова Х.Б., Мамедов Х.В. Сопоставительный анализ икс-фемического характера азербайджанских, турецких и узбекских огублённых и неогублённых пословиц и поговорок // SAI. 2024. №Special Issue 28. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sopostavitelnyy-analiz-iks-femicheskogo-haraktera-azerbaydzhanskih-turetskih-i-uzbekskih-ogublyonnyh-i-neogublyonnyh-poslovits-i>
9. Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилоҳлар // Филология масалалари. – Тошкент, 2011. – № 2. – 24-б.